
VILOYAT PROKURORI SAYYOR QABUL O'TKAZDI

Qo'shtepa tumanida maktab bitiruvchilari va yoshlarni har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash, ularning intilish va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, iste'dod va salohiyatlarini ro'yobga chiqarish hamda yosh tadbirkorlik sub'yektlarining muammolarini o'rganish va ularga ko'maklashish maqsadida 2-sektor rahbarining tashabbusi bilan Kattabeshkapa mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi 46-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida Farg'ona viloyat prokurori U.Qosimov sayyor qabul o'tkazdi. Ushbu tadbirda 50 nafar bitiruvchi va uyushmagan yoshlar ishtirok etdilar.

Shuningdek, sayyor qabulda tuman hokimi I.Novikov va sektor rahbarlari, tumandagi barcha tashkilot va korxonalar rahbarlari qatnashdilar.

Uchrashuv avvalida, viloyat prokurori U.Qosimov mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, bu borada yoshlarga va tadbirkorlarga yaratilayotgan shart-sharoitlarga batafsil to'xtalib o'tdi.

Ochiq muloqot tarzida o'tgan uchrashuvda yoshlarni qiynab kelayotgan muammolar tinglanib, ularning takliflari atroflicha o'rganildi.

Uchrashuvda soʻzga chiqqan 9 nafar maktab bitiruvchilaridan 4 nafari oliy ta'lim muassasasiga oʻqishga kirish istagini bildirib, test imtihonlari boʻladigan joylar va yaratilgan shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar toʻgʻrisidagi savol bilan murojaat qilgan boʻlsalar, 2 nafari oʻzlarining ijod na'munalari bilan ishtirokchilarni tanishtirdilar. Yana 2 nafari tadbirkorlik faoliyatini yoʻlga qoʻyish istagini bildirib, imtiyozli kredit olishda, 1 nafari esa gʻalladan boʻshagan maydonlardan takroriy ekin ekish uchun yer maydoni ajratishda amaliy yordam berishni soʻrab murojaat etishdi.



Kredit olishni so'rab murojaat qilgan 2 nafar maktab bitiruvchisidan qabul jarayonida arizalar olinib, ATB "Agrobank" Qo'shtepa filialiga ko'rib, ijobiy hal etish uchun yuborildi.



Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim maktablarini 2019-2020 o'quv yilida oltin va kumush medallarga tamomlagan, qabulda faol ishtirok etgan 15 nafar bitiruvchilarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-07-07 13:08:45